

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsnинг milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar.....	207
U.Qurbanov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'rroqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirdorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsi anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzmamatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
"Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253

SIYOSAT

M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globallashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museybizada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285

ТАРИХ

I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarda suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

TASAVVUF VA FUTUVVAT TA'LIMOTLARI HAQIDA MULOHAZALAR**РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ УЧЕНИЯХ СУФИЗМА И ФУТУВВАТА****REFLECTIONS ON TEACHINGS OF SUFISM AND FUTUWAT****Rabbimova Feruza Shamsiddinovna¹****¹Rabbimova Feruza Shamsiddinovna**

– Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi.

Annatatsiya

Maqolada tasavvuf vafutuvvat ta'limotining falsafiy xususiyatlariga umumiyl sifatlari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada futuvvat va tasavvufiy qarashlar asosida yoshlarning kamolotga erishishida umuminsoniy qadriyatlarga xos bo'lgan bag'rakenglik, hurfikrlilik, adolatlilik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi gumanistik g'oyalarni ma'rifatli jamiyat taraqqiyotida altruistik mazmunini ilmiy-nazariy tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье описываются философские черты и общие черты учения суфизма и футувваты. Также в статье научно и теоретически исследовано альтруистическое содержание таких гуманистических идей, как терпимость, фанатизм, справедливость, скромность, трудолюбие в развитии просвещенного общества, которые свойственны общечеловеческим ценностям, основанным на футувватно-мистических воззрениях.

Abstract

The article describes the philosophical features and general qualities of sufism and futuwat doctrine. Also, the article has scientifically and theoretically researched the altruistic content of humanistic ideas such as tolerance, bigotry, justice, modesty, and hard work in the development of an enlightened society, which are characteristic of universal human values, based on futuvvat and mystical views.

Kalit so'zlar:* tasavvuf, futuvvat, islom, Movaraunnahr, odob-ahloq, insoniylik, ma'naviy-ruhiy vosita.**Ключевые слова:* Суфизм, Футувват, Ислам, Моварауннахр, этика, человечество, духовное орудие.*****Key words:* Sufism, Futuvvat, Islam, Movaraunnahr, ethics, humanity, spiritual weapon.****KIRISH**

IX–XII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rın egallab, jamiyat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Islom mafkurasiga asoslangan tasavvuf va futuvvat ta'limotlari IX–XII asrlardan boshlab Markaziy Osiyoda ham keng tarqala boshladi. Xususan, Yusuf Hamadoniy Buxoroda tasavvuf ta'limotini targ'ib etildi va Markaziy Osiyoda Xo'ja Axmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijdivoni, Najmuddin Kubrolar shogirdlarni yetishtirib chiqardi va ulardan Movarounnahrda yangi tariqat va oqimlar vujudga keldi. IX–XII asrlarda Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o'lda sifatida mashhur bo'lib, bu yerda hadisshunoslar va islom fiqhshunoslik maktablari rivojlandi hamda ushbu fanlarga oid muhim asarlar yaratildi.

Tarixiy vogelik shundan dalolat beradiki, musulmon Sharq Uyg'onishining birinchi bosqichi deb nom olgan IX asrning oxiri va X asrdan boshlab Turon zaminda futuvvat ilmi javonmardlik tariqati keng yoyilgan va ommaviy tus olgan edi. Uning asosini oddiy raiyat ichidan chiqqan hunarmandlar, san'atkorlar, dorbozlar, qiziqchilar, sipohiyalar, pahlavonlar va shu kabi el-ulusning barcha toifa vakillari tashkil etgan edi.

Movarounnahrda futuvvat ta'limoti ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi, nisbatan katta qismi tasavvuf g'oyalariiga yaqin g'oyalarni targ'ib etib, aksariyat bo'ydoq o'tishgan. Tasavvuf g'oyalariiga yaqin g'oyalarni targ'ib etgan futuvvat vakillari birgalikda hayot kechirganlar. Futuvvat ahlining muhiti ma'lum shahar va hududlarda keng tarqalgan bo'lib, har bir shaharda birodarliklar mavjud edi, qayerga sayohat qilishsa, ular bir-birlarini kutib olganlar. Arab sayyohi Ibn Batuta "Sayohatnama" kitobida "Men dunyoni kezib javonmardlardan ko'ra ezgu niyatli va ezgu xulqli kishilarni ko'rmadim. Sheruz va Isfahon mardlari o'zlarini javonmardlariga o'xshatishsalar-da, ammo ular (ya'ni Xorazm va Movarounnahrning javonmardlari) g'arib-musofirlarni siylash va mehmonorchilikda ulardan baland turadilar. Ularni Iroqda shotir, Xurosonda sarbador, Mag'rib(Andoliya)da sukra ('sukra'-mast demak) deyishadi. Ularga tobe' joylarda adolat rasmi shunday rivojlanganki, ularning lashkargohlari, uylari ostonasida oltin va kumush tangalar yerga sochilib yotadi va egasi topilmaguncha hyech kim bu pullarga tegmaydi" deb keltiradi [1,105].

FALSAFA

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyoning yetakchi olimlari, Markaziy Osiyo mutasavviflari ma'naviy merosida tasavvuf, irfon, futuvvat ilmi mohiyatini o'rganishga, uning jahon falsafiy tafakkuri rivojiga ta'siri masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan, jumladan, jahonda M.Xartman, Frans Teshnerning, M.Stepanyans, B.Radtke , A.Arberri , A.Go'linorli , U.Turar, N.Tosun, Zarrinko'b, Mahmud A'sad Juylshonlarning tadqiqotlarida tasavvuf ta'limotlarining mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Germaniyalik mashhur olim Frans Teshner so'fizm ta'limotlari taraqqiyotida "Futuvvat"ning ijtimoiy-falsafiy o'rnnini ko'rsatib, maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, tariqatning bir qismi bo'lgan "Futuvvat" ta'limotini yuqorida qayd etilgan M. Gavrilov , A.K. Borovkov, A.B. Gordleviskiyar ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq qilgan va qator asarlar chop etgan. Shu bilan birga tasavvuf ta'limotlarini tarixiy, diniy, falsafiy, aksilogik jihatlari o'rganilib, tahlil etilgan, ammo, futuvvat ta'limotini va uning Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri rivojidagi o'rni bo'yicha yaxlit, tizimli ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Futuvvat-javonmardlik inson ruhini tarbiyalash orqali komil insonni shakllantirishga qaratilgan ilm bo'lib, tasavvuf va tavhid ilmidan ozuqa oladi, ularning hayotiyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu haqda Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida "*Birta o'tmakni ikki bo'lub, yarmin bir ochg'a berganni saxiy de; o'zi yemay barin muhtoja berganni axiy de*" [2,79] kabi jumlani keltiradi. Husayin Voiz Koshifiy o'zini javonmard deb birinchi bel bog'laganlar o'n yetti kishi deb aytgan, ular quyidagilar: Salmon Forsiy, Abuzar G'afforiy, Ammor Yozar, Mindor Asvad, Husann Sobit, Abubayd Jarroh, Jobir Ansoriy, Suhayil Yamaniy, Muslim Shakkii, Malik Attor, Dovud Misriy, Suhayil Rumiy, Amru bin Umiya, Sayf Yamaniy, Qanbar Ali, Javonmard Qassob, Abu Muhanjon. Xuroson, Iroq, Mavarounnahr ahlining futuvvat vakillari Salmon Forsiyiga borib taqaladi [3,202]. Ya'ni, Islom olamida har bir beli bog'lagan kishi komil, mard hisoblangan.

Mavarounnahr javonmardlari muayyan tartib, qoida-talablarga rioya etganlar, nima ish bilan shug'ullanmasinlar, mardlik va oliyjanoblik namunasini ko'rsatganlar. Ularning har birini o'z jamoasi, piri-ustozi, ta'lim beruvchi murshidlari, to'planadigan joylari bo'lgan. Pirga qo'l bergen va ustoz oldida ahd-u paymon qilib, mardlik belbog'ini beliga bog'lagan javonmard-shogird bir umr ahdiga sodiq qolishga intilgan.

Ta'limotning oliyjanoblik, ijtimoiy ideallik va insoniy fazilatlar, jasurlik ularga xos xislatlar edi va ularning g'oyalari Mavarounnahr ijtimoiy-siyosiy hayotiga futuvvat ta'limotining kirib kelishiga asos yaratdi. Futuvvatga xos xususiyatlар dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi omma tomonidan o'zlashtirilib, ular orasida shurbi va mutazalih oqimlari vujudga keldi. Qayerda futuvvat g'oyalari yoyilgan bo'lsa, u turli xil ijtimoiy guruhlarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi va hunarmandlar orasida ham yoyildi va shu sababli shaharlarda, asosan, hunarmandchilik ustaxonalarida javonmardlik arkonlari joriy etildi.

Futuvvat ta'limotining Eronda so'ngra Xuroson va Mavarounnahrda yuksalib, Kichik Osiyoga qaraganda ancha ilgari kirib kelgan edi. Dastlab forsiylarda, keyinchalik turkiylarda qahramon darajasiga ko'tarilgan Sayid Battal va Abbosiylar sulolasining tashviqotchisi Abu Muslimlar tomonidan futuvvat qonun-qoidalari Markaziy Osiyoga kirib kelgan degan olimlarning qarashlari mavjud. Sayid Battal haq din uchun kurashganlarning timsoli bo'lsa, Abu Muslim "axiy" larning timsoli sifatida baholangan. Shu o'rinda Abu Muslimning obrazi yaratilgan hikoyalarga ko'ra, "axiy"likning Mavarounnahrqa kirib kelishi uning nomi bilan bog'liq. Bu haqida tojikistonlik olim Z.V.Vazirov o'z tadqiqotlarida quyidagilarni keltiradi: "Bu jarayon islom mamlakatlarini qamrab oldi. Qayd qilish mumkinki, Saljuqiylar davrida u shahar hunarmandlari orasida keng tarqalgan bo'lib, futuvvat vakillari ko'proq turk olamida "axi" lar deb nomlangan [4,164]. Axi so'zi qon-qarindosh, birodar va ahillik ma'nolarini anglatadi. Bu davrga kelib, futuvvat ta'limoti ommaviy tus olib zodagon va hukmron tabaqa vakillari orasida ham keng tarqaldi, ezbilik va oliyjanoblikning eng nozik tafsilotlarga molik bo'lgan saroy futuvvasi yuzaga keldi.

Tadqiqotchi Frans Teshnerning fikricha, ummaviylar sulolasiga qarshi abbosiylar tarafidan turib targ'ibot olib borgan Abu Muslimning Mavarounnahrdagi g'alabasi, bu hududda futuvvatning o'ziga xos g'alabasi ham edi. "Mavarounnahrda va Xurosonda unga yordam bergan safdoshlarini ham futuvvat vakillari safiga qo'shami va ularni turk futuvvatining qurollari" deb baholaydi [5,651]. Shu o'rinda "axiy" so'zi va axiy vakillari to'g'risida quyidagilarni qayd etib o'tish o'rinni: axiy birodarlarining o'z yumushlari bor edi.

Dastlabki vaqtarda islom yuzaga kelgan ilk davrlarda Markaziy Osiyoda turkiy harbiylarning jasorati va alohida qahramonligi bilan belgilangan futuvvat axloqiy va diniy qarashlardan yiroqroq tursa-da, XI-XII asrlarga kelib so'fiylik va futuvvat jamoalaridagi o'xshashliklarni kuzatish mumkin.

So'fiylik g'oyalari futuvvat ta'llimotining qayta shakllanishiga, rivojlanishiga asos yaratdi. Musulmon mamlakatlarda katta hurmat qozongan so'fiylik nazariyasi asoschilaridan biri, yuqorida nomi qayd etilgan xalifa An-Nasrning maslahatchisi "Ishroq hikmati"-ga asos solgan orif Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiydir. Buning bir isboti sifatida so'fiylik qoidalardan bo'lgan "isnad"ning futuvvat ta'llimoti uchun qabul qilinishi fikrimizni ma'lum ma'noda to'g'ri ekanligini isbotlaydi.

Tasavvufda Allohning aqldan tashqarida mutloq yagonaligi quyidagi muammolarni o'rta ga tashladi: borliq yagona, mutloq Alloh bilan bog'liqligi, shu asosda so'fiylar mutloq monizm falsafasining poydevorini qurbanlar. Ammo, tasavvuf tariqatlari Alloh, borliq tushunchalarini islom dini va falsafasi, tasavvuf ta'llimotlari turlicha talqin qilishgan. Jumladan, Yassaviya tariqatida zohiriy va botini tushunchalarga urg'u berilgan yoki Naqshbandiya tariqatida ikkalasini ham birlashtirganligini misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin.

Anglashimizga ko'ra futuvvat va tasavvufdagi asosiy g'oya inson Allohnini va o'zini anglashi kerak. Markaziy Osiyo mutasavviflarining tasavvufiy-falsafiy qarashlarda insonnning yuksak insoniy fazilatlari, o'z manfaatini ko'ra, umumxalq manfaatlarini ilgari surish va uni yuksak darajada hurmat qilish g'oyalari ilgari surilgan. Markaziy Osiyodagi tasavvuf va futuvvat ta'llimotlarda to'g'rilik, poklik, halollik, insoniylik, mardlik kabi tasavvufiy g'oyalalar ustuvorlik qilgan. Xoja Ahmad Yassaviy halol emas narsalardan hazar qilgan, gunohi shaxsan o'ziga emas, oila, farzandlariga ham ta'sir qiladigan balo, deb hisoblaydi. Ahmad Yassaviy hikmatlarda inson komillikka intilish, shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlarini anglashi, Alloh yo'lida fidoiylik, hayotda xalollik, turmushda poklikka undashi asosiy g'oya hisoblangan:

Oshiqliqni da'vesini qilg'an kishi,
Ma'shuqidin zarra g'ofil bo'lgani yo'q.
Ishq gavhari tubsiz daryo ichra pinhon,
Jondan kechmay ul gavhardin olg'ani yo'q [7,126].

Murshid yuqoridagi hikmatda oshiq, ma'shuq, ishq, daryo, ishq gavhari kabi ramzlar orqali Alloh ishq qalbi tushgan solikning ma'shuqi (Yaratgan)ning har bir buyrug'idan xabardor bo'lishi shartligi, komillik, tubsiz daryo (hayot) daryosining eng tubida yashirin ekanligi, uni olish uchun jondan kechib hayot daryosida suzishi, halol, to'g'ri Alloh buyurgandek yashashi shartligini ta'kidlagan. Olim Dj.S.Trimingem yassaviya tariqati haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Ko'p mashhur so'fiylar o'z kelib chiqishlarini undan (Yusuf Hamadoniyan) boshlaydilar, lekin ikkita asosiy tariqat uning ikkita xalifasiga borib taqaladi: forsiy – Xoja Abduxoliq G'ijduvoniya, turkiy Xoja Ahmad Yassaviyga. Turkiy so'fiylarning ushbu zanjiri, uning ta'llimotidan boshlanib, sayyor mashoyixlar tarqalib ketgandan keyin Kichik Osiyo turklari orasiga yoyildi" [8,81]. Yassaviya tariqatida solik boshqalar uchun qayg'urishi shartligi, inson shaxsiy huzur-halovatga qaramasligi, narigi dunyo mavjud va unda hamma o'zi istagan kishi bilan uchrashishi haqidagi g'oyalarga asoslanganligi tasavvuf va futuvvat tushunchalarini yassaviya tariqatida umumiyl aks etganligini ko'rishimiz mumkin.

Movarounnahrning yana bir mashhur murshidi kubraviya tariqati asoschisi Najmiddin Kubro hisoblanadi. Kubroviya ta'llimoti hadis va shariatga asoslangan bo'lib, Markaziy Osiyo, Xuroson kabi o'lka xalqlari orasida keng tarqaldi. Najmiddin Kubro mashhur pir bo'lsa-da kamtarona hayot kechirgan. Kubroviya tariqatida inson o'z mohiyati e'tibori bilan mikrokosmos (kichik olam) ammo makrokosmosdag'i (katta olamdag'i) bo'lgan koinotdag'i barcha narsalarni o'zida mujassamlashtiradi. Kubroviyada ikki olam munosabatini anglash, tushunish, bir-birisiz mavjud bo'lmaydigan, bir-biriga zarurat etuvchi doimiy yaxlitlik sifatida talqin etilgan. Najmiddin Kubroning "Xulq-atvor qoidalari" nomli asari Movarounnahr so'fiylari va futuvvat ahli uchun qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Najmiddin Kubro Urganch shahrida mo'g'ul bosqichlariga qarshi kurashgan, mo'g'ullar uning qo'llidan bayroqni tortib olisholmagan. Najmiddin Kubroning ushbu jasorati futuvvat ta'llimotidagi, o'zgalar manfaati uchun yashash, o'zgalar uchun jon berish mardlik, ona-Vatanni sevish kategoriyanı o'zida aks ettiradi.

XULOSA

Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda shakllangan yassaviya, kubraviya tariqatlarida altruizm g'oyalalarining ifodalaniishi ma'lum ma'noda taasavvuf-futuvvat falsafasining amaliy ahamiyati

FALSAFA

sifatida ko'riladi. Rivojlangan o'rta asrlarda Xorazmshohlar davlatining tugatilishi bilan va mo'g'ullarning Movarounnahrga bosqini natijasida futuvvat ta'limoti ham ijtimoiy hayot va ma'naviyatning ko'p tarmoqlari singari zavol topdi va asta sekin ijtimoiy hayotdagi o'rni zaiflasha boshladi. Futuvvat ta'limoti vositasida insonlar axloqi tarbiyalanib, bosqichma-bosqich komil inson darajasiga yetkazadi. E'tiqod, iymon, ibodat insonni ruhan poklaydi, qalbiga va ruhiga osoyishtalik baxsh etadi. Futuvvat ta'limotini tushunmasdan ham shariat talablarini bajargan inson ma'naviyat yetuk shaxs bo'lib shakllanishi mumkin. Futuvvat ahlining asosiy maqsadi jamiyatda yo'qolib borayotgan insoniylik, poklik halollik, mardlik, jasurlik saqlab qolishni targ'ib qilish edi.

Tasavvuv va futuvvat ta'limotlari jamiyatda axloqiy munosabatlarini insoniy qadriyatlar asosida tartibga solgani uchun xalq tomonidan ma'naviy-ruhiy vosita sifatida qabul qilingan. Axloq tarbiyasini tasavvuf va futuvvat ta'limotlaridan o'rganish mumkin. Jamiyatda komil inson tarbiyasida tasavvuf va futuvvat ahli iymonsizlikka, muqaddas an'analarga humratsizlikka, inson dilining ranjishiga, umuman jamiki adolatsizlikqa qarshi kurashuvchi targ'ibotchilar bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent.: Movarounnahr, 2009. –B.105.(Komilov N. Sufism. - Tashkent.: Movarounnahr, 2009. - P.105.)
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'rtinchi tom. MAHBUB UL-QULUB, Tanbeh 11, Saxovat va himmat bobida. – Toshkent.: "Fan", 1998. –B.79.(Alisher Navoi. A perfect collection of works. Twenty roofs. The fourteenth roof. MAHBUB UL-QULUB, Rebuke 11, Chapter Generosity and Diligence. - Tashkent.: "Fan", 1998. -B.79.)
3. Komilov N. Inson haqida to'rt risola. – Toshkent.: Ma'naviyat, 1997.-B.202. (Komilov N. Four treatises about man. - Tashkent.: Ma'naviyat, 1997.-B.202.)
4. Vazirov Z.B. "Социально-политические и нравственно-религиозные учения и философская система футуввата" диссертация. канд. философ. наук. -Душанбе, 1981. 164 с. (Vazirov Z.V. "Socio-political and moral-religious teachings and the philosophic system of futuvvata" dissertation. cand. philosopher. Sciences. - Dushanbe, 1981. 164 p.)
5. Franz Taeschner. Zünfte und Bruderschaften im Islam: Texte zur Geschichte der Futuwwa (Bibliothek des Morgenlandes.) - Zürich, München: Artemis Verlag, 1979. – pp.651. // Bulletin of the School of Oriental and African Studies , Volume 43 , Issue 3 , October 1980 , pp. 638 DOI: <https://doi.org/10.1017/S0041977X00138017>
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Hilol nashr, 2016. – B. 101.(Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. A vision of mysticism. - Tashkent: Hilal publication, 2016. - P. 101.)
7. Yassaviy, Ahmad. Devoni hikmat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – B. 126.(Yassawi, Ahmed. Devoni hikmat. - Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam, 1992. - P. 126.)
8. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордени в исламе. –Москва: София. Д. Гелиос, 2002. – C. 81.(Trimingham J.S. Sufi orders in Islam. – Moscow: Sofia. D. Helios, 2002. - pp. 81.)
9. Шодиев Р. Т. Суфизм в духовной жизни Средней Азии (IX-XII вв)[Sufism in the spiritual life of Central Asia (IX-XII centuries)] //Автореф. Докторской диссертации. – 1993.(Shodiev R. T. Sufism in the spiritual life of Central Asia (IX-XII centuries) [Sufism in the spiritual life of Central Asia (IX-XII centuries)] //Avtoref. Doctoral dissertation. - 1993.)
10. Шодиев Р. Т. Критический анализ нравственных норм среднеазиатского суфизма. – 1983.(Shodiev R. T. Critical analysis of the moral norms of Central Asian Sufism. - 1983.)
11. Tohiro维奇 S. R., Adirasulovich K. S. Explanation Of Lust And Patience In" Hikmats" Of Khoja Ahmed Yasawi //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 9. – C. 229-233.
12. Saфаров А. И., Hakkulov N. K. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.(Safarov A. I., Khakkulov N. K. Characteristic qualities of a perfect person in Sufism // Modern science as a socio-political factor in the development of the state. - 2019. - pp.48-50.)
13. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Духовная зрелость и философское мышление зависимость развития //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 164-167.(Alikulov X., Haqqulov N. Q. Spiritual maturity and philosophical thinking, dependence of development // Theoretical & Applied Science. – 2020. – no. 4. - pp.164-167.)